

**BO`LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O`QITUVCHILARINI MATEMATIKA DARSLARIDA ALGARITMIK FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH****To'lqinova Shahnoza Erkin qizi***Guliston davlat universiteti, Ta'lim va tarbiya nazaryasi (Boshlang'ich ta'lim)**2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bo`ljak boshlang'ich sinfi o`qituvchilarining matematika darslarida turli qobiliyatlarini, jumladan algoritmik fikrlash ko`nikmasini shakllantirishga oid qarashlar tahlil etiladi.*

**Kalit so`zlar:** *Algoritmik fikrlash, davlat ta'lim standarti, matematika, tayanch va fanga oid kompetensiya, kommunikativ kompetensiya.*

**KIRISH**

“Mamlakatimizda boshlang'ich sinflarda matematika o`qitish umuman maktab matematika kursini o`zlashtirishning dastlabki bosqichi sifatida qaraladi. Shu sababali boshlang'ich sinflarda ishlashda o`rta maktabda matematika o`qitishda ko`zda tutiladigan umumiy masalalarni hisobga olish va bu masalalarni hal etishda boshlang'ich ta'limning ahamiyatini to`g`ri baholash kerak. boshlang'ich ta'limning muhim masalalaridan biri o`quvchilarda ongli va mustahkam hisoblash malakalarini shakllantirish edi va shunday bo`lib qoladi. o`quvchilarga egallangan bilim, o`quv va malakalarini turli xil sharoitlarda qo`llanishga o`rgatishni o`qitishning maxsus masalalari sifatida qarash kerak. Bu - o`quvchilarni politexnik tayyorgarligiga qaratilgan ishning boshlanishidir. shu bilan birga bilimlarning qo`llanishi ham bolalarning o`quv ishlari samaradorligini oshirishning muhim vositalaridan biridir. bilim, o`quv va malakalarning to`la qiymatli o`zlashtirishiga ularning o`zgaruvchi sharoitlarda mustaqil qo`llanilishi natijasidagina erishish mumkinligini psixologlar isbotlashdi. bolalarning maktabda boshlang'ich sinflardan keyingi sinfga o`tishiga albatta vujudga keladigan qiyinchiliklar ko`p darajada aynan shu asosda bartaraf etilishi mumkin.

**ADABIYOTLAR SHARHI**

Matematika bilan shug`ullanish faqat xotira va tafakkurni shakllantirib qolmay, balki bolalarning mehnat tarbiyasi maktabi ham bo`ladi. u mehnat qilishga odat qilishni va mehnatga ehtiyojni tarbiyalash bo`yicha doimiy sistemali ishlash uchun material beradi, tafakkur intizomini va mehnatni aniq tashkil etishni, fikrning bir joyga to`planishini, aniqlikni talab qiladi”.

Umumiy o`rta ta'limning Davlat Ta'lim standarti va o`quv dasturi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son “Umumiy o`rta ta'lim va o`rta maxsus kasb - hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to`g`risida”gi qarori<sup>32</sup> bilan tasdiqlangan umumiy o`rta ta'limining davlat ta'lim standarti hamda umumiy o`rta ta'limning boshlang'ich sinflari uchun matematika fani bo`yicha malaka talablari asosida

<sup>32</sup> O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o`rta ta'lim va o`rta maxsus kasb - hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to`g`risida”gi 187-son qarori

tuzilgan bo'lib, Xalq ta'limi vazirining 2017-yil 3-iyundagi "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari talablari asosida takomillashtirilgan o'quv dasturlarini tasdiqlash va amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi 190-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-4 sinflari uchun amaliyotga joriy etiladi.

Davlat ta'lim standartining maqsadi-umumiy o'rta ta'lim tizimini mamalakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamolva intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Davlat ta'lim standarti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi; umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi; umumiy o'rta ta'limning malaka talablari; baholash tizimi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Matematikani o'rganishning dastlabki bosqichida algoritmdan foydalanish bòlajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni o'qitishning zamonaviy progressiv usuli hisoblab, u dasturlashtirilgan aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi dunyosiga kirish hisoblanadi. Yosh pedagoglar algoritmik fikrlashni o'rganadilar. Ular alohida elementlarning tizimli bog'lanishlarini ya'ni tizimning o'zini buzmasdan, aksincha, butunligini saqlagan holda ko'rish, har qanday materialni o'zlashtirishda ketma-ket harakatlarni bajarish, mantiqiy bog'langan zanjirda fikrlashni o'rganadilar.

Boshlang'ich sinflarda matematika darsida eng oddiy algoritmlardan foydalanish o'rganilayotgan masalaning mazmundorligini oshiradi, uni o'rganishni yengillashtiradi va tezlashtiradi. Eng oddiy algoritmlar asta-sekin murakkabroq bo'lganlar bilan almashtirilib boriladi, ular ijodkorlik elementlarini o'z ichiga ola boshlaydi. Algoritm elementini bosqichma-bosqich yengib o'tgan sari, yosh pedagog o'quv jarayonining o'ziga qiziqadi, chunki har bir element o'rganilayotgan vazifaning soddaligi va ravshanligini o'z zimmasiga oladi. Shu bilan birga, bòlajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi algoritm elementini to'g'ri yecha olganligi yoki yo'qligini, uni topshirgandan so'ng darhol keyingi elementni echishga kirishishdan oldin biladi. Algoritm ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilgan holda, yosh pedagog eng qiyin masalani ham hal qila olishi kerak.

Har qanday harakatlarni bajarish algoritmlarini o'rganish insonning fikrlash madaniyati va xulq-atvorini shakllantiradi. Hayotda algoritmlardan foydalanish nafaqat matematikada hisob-kitoblarning ko'nikma va malakalarini avtomatlashtirishga, balki umumiy intellektual rivojlanishga ham yordam berishga olib keladi. Shunday ekan matematikaning boshlang'ich bosqichida algoritmik tafakkurni o'rganish o'quv jarayonini takomillashtirishning eng samarali usullaridan biridir.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, hozirgi zamon boshlang'ich sinf o'qituvchisidan algoritmik fikrlash, operativ qaror chiqarish, tezkor qaror qabul qilish va shu kabi bir qator xususiyatlar talab etiladi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus , kasb -hunar ta’limining davlat ta’lim standartlari tasdiqlash to‘g‘risida “gi 187-son qarori
2. N.U.Bikbayeva, R.I.Sidelnikova,G.A.Adambekova Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi.-T.: O‘qituvchi, 2016.
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)